

## **Geologiya muzeyidagi eksponatlar**

“Gidromelioratsiya” fakulteti “Gidrologiya va gidrogeologiya” kafedrasi “Daryo va suv omborlari gidrologiyasi” va “Meliorativ gidrogeologiya” ta’lim yo’nalishlari 2-bosqich talabalari Geologiya va gidrogeologiya fanidan o’tkazilayotgan o’quv-tanishuv amaliyotining ilk kunlarini amaliyot rahbari I.Ro’ziyev va Q.Eshquvatov bilan birligida Geologiya muzeyidagi eksponatlar bilan tanishishdan boshladi.



Muzeyda talabalarga qadimiy geologik topilmalar, noyob tog’ jinslari va minerallar bilan tanishtirilib ularning shakllanish jarayonlari va xususiyatlari to’g’risida ma’lumotlar berildi. Talabalarning aksariyati muzeydagi minerallar va tog’ jinslarining nomlarini aytib berib muzey xodimlarini lol qoldirishdi. Talabalar ko’tarinki kayfiyat bilan muzey xodimlari bilan xayrashib muzeyni tark etar ekan, olgan taassurotlari yuqori ekanligini va yana tashrif buyurishlarini bildirdilar.



**TIQXMMI matbuot xizmati**